

BO'LAJAK BOSHLANG'ICH TA'LIM O'QITUVCHILARINING KASBIY RIVOJLANISHIDA PEDAGOGIK REFLEKSIYA VA INTUITSIYANING AHAMIYATI

Yuldasheva Gavxaroy O'rinboy qizi

Urganch innonatsion university

o'qituvchi-stajyor

tel: +998942376611.

[*gavaroy5@mail.com*](mailto:gavaroy5@mail.com)

Annotatsiya: Mazkur maqolada pedagogik intuitsiya va refleksianing bo'lajak o'qituvchilarning kasbiy rivojlanishidagi o'rni tahlil qilinadi. Pedagogik intuitsiya o'qituvchining talaba shaxsining individual xususiyatlarini anglash, ta'lim jarayonida tezkor va to'g'ri qaror qabul qilish, ijodiy yondashuvni rivojlantirish imkonini beradi. Pedagogik refleksiya esa o'qituvchining o'z faoliyatini baholash, o'z-o'zini anglash va kasbiy o'sish jarayonini boshqarish uchun muhim omil sifatida namoyon bo'ladi. Shuningdek, maqolada refleksiya bo'lajak o'qituvchi va talabaning o'zaro o'quv jarayonidagi o'zaro ta'sirini tashkil etish mexanizmi sifatida ko'rib chiqiladi. Pedagogik intuitsiya va refleksiya pedagogik idrok etish, ijodkorlik hamda kasbiy o'zini-o'zi rivojlantirishning asosiy tarkibiy qismlari sifatida talqin qilinadi.

Kalit so'zlar: Pedagogik intuitsiya, pedagogik refleksiya, kasbiy rivojlanish, bo'lajak o'qituvchi, refleksiv boshqaruv, kasbiy ijodkorlik, pedagogik idrok, o'z-o'zini rivojlantirish, kognitiv qulaylik, kasbiy intuitsiya, o'qituvchining o'zini anglash jarayoni, ta'lim jarayoni, refleksiv mexanizmlar, shaxsiy tajriba, o'qituvchining pedagogik faoliyati.

Аннотация: В данной статье анализируется роль педагогической интуиции и рефлексии в профессиональном становлении будущих учителей. Педагогическая интуиция позволяет учителю понимать индивидуальные особенности ученика, быстро и правильно принимать решения в учебном процессе, развивать творческий подход. Педагогическая рефлексия выступает важным фактором оценки

собственной деятельности учителя, самосознания и управления процессом профессионального роста. Также в статье рассматривается рефлексия как механизм организации взаимодействия будущего учителя и ученика в образовательном процессе. Педагогическая интуиция и рефлексия трактуются как основные составляющие педагогического восприятия, творчества и профессионального саморазвития.

Ключевые слова: Педагогическая интуиция, педагогическая рефлексия, профессиональное развитие, будущий учитель, рефлексивное управление, профессиональное творчество, педагогическое восприятие, саморазвитие, познавательный комфорт, профессиональная интуиция, процесс самосознания учителя, учебный процесс, рефлексивные механизмы, личный опыт, педагогическая деятельность учителя.

Abstract: This article analyzes the role of pedagogical intuition and reflection in the professional development of future teachers. Pedagogical intuition allows the teacher to understand the individual characteristics of the student, make quick and correct decisions in the educational process, and develop a creative approach. Pedagogical reflection, on the other hand, is an important factor in the teacher's assessment of his own activities, self-awareness, and management of the process of professional growth. The article also considers reflection as a mechanism for organizing the interaction of the future teacher and student in the educational process. Pedagogical intuition and reflection are interpreted as the main components of pedagogical perception, creativity, and professional self-development.

Key words: Pedagogical intuition, pedagogical reflection, professional development, future teacher, reflexive management, professional creativity, pedagogical perception, self-development, cognitive comfort, professional intuition, teacher's self-awareness process, educational process, reflexive mechanisms, personal experience, teacher's pedagogical activity.

Zamonaviy ta'lif jarayoni doimiy o'zgarish va rivojlanish bosqichida bo'lib, bu jarayonda bo'lajak boshlang'ich ta'lif o'qituvchilarining kasbiy shakllanishi va rivojlanishi dolzarb masalalardan biri hisoblanadi. O'qituvchi nafaqat bilim va ko'nikmalarga ega bo'lishi, balki ta'lif jarayonida yuzaga keladigan turli pedagogik vaziyatlarni tezkor va samarali hal qilish qobiliyatini ham rivojlantirishi lozim. Shu nuqtai nazardan, pedagogik refleksiya va intuitsiya o'qituvchining kasbiy rivojlanishida muhim o'rin tutadi.

Pedagogik refleksiya bo'lajak boshlang'ich ta'lif o'qituvchisining o'z faoliyatini baholash, tahlil qilish va o'z pedagogik tajribasini takomillashtirishga yo'naltirilgan jarayon bo'lib, kasbiy o'zini anglash va rivojlantirish vositasi sifatida namoyon bo'ladi. Ushbu jarayon orqali o'qituvchi o'zining kuchli va zaif tomonlarini aniqlab, ta'lif jarayonini samarali tashkil etishga erishadi. Shu bilan birga, pedagogik intuitsiya esa o'qituvchiga murakkab ta'limiy vaziyatlarda tezkor qaror qabul qilish, talabalar bilan individual yondashuv asosida ishlash va ta'lif jarayonini ijodiy tashkil etish imkonini beradi.

B.G.Ushakov "pedagogik refleksiyalash" tushunchasiga quyidagi ta'rifni beradi: "Pedagogik refleks subyektning o'z kasbiy (pedagogik) faoliyatiga nisbatan refleksiv, analistik pozitsiyani egallash qobiliyatida va shaxs sifatida o'z-o'zining o'qitish tajribada namoyon bo'ladigan murakkab ijtimoiy-psixologik hodisa sifatida tushuniladi[1].

L.M.Mitina refleksiyani tahlil qilish, baholash, o'zini anglash, o'z xatti-harakati va faoliyatini tartibga solish, ta'lif oluvchining individual xususiyatlariga kirib borish, o'z-o'zini bilish, tushunish va baholash, shaxsning ichki qarama-qarshiliklari hamda ziddiyatlarini konstruktiv hal qilish uchun talabaning pozitsiyasi va nuqtai nazarini egallash qobiliyatları to'plami sifatida belgilaydi[2].

Refleksiya bo'lajak professor-o'qituvchi va talabaning o'zaro o'quv jarayonidagi o'zaro ta'sirini tashkil etishning asosiy mexanizmi bo'lib, uni talabalar faoliyatini refleksli boshqarish jarayoni sifatida tavsiflash mumkin, bunda talaba o'z ta'lif faoliyatini boshqarishga qodir bo'lgan subyekt pozitsiyasini egallaydi.

Pedagogik refleksiya - bu mutaxassisning o‘ziga va kasbiy faoliyatiga nisbatan analitik pozitsiyani egallash qobiliyatida namoyon bo‘ladigan o‘z-o‘zini kasbiy takomillashtirish va o‘z-o‘zini rivojlantirish mexanizmi. O‘qituvchining kasbiy rivojlanishi kontsepsiyasida aks ettirish ichki shaxsiy qarama-qarshiliklarni hal qilish vositasi sifatida qaraladi, uning sababi “haqiqiy o‘zlik”, “ideal o‘zlik” va “refleksiv o‘zlik” o‘rtasidagi nomuvofiqlikdir[3].

O‘qituvchining o‘z his-tuyg‘ularini, qadriyatlarini, munosabatlarini, shaxsining kuchli va zaif tomonlarini tahlil qilish va baholash qobiliyati, ularning o‘qituvchining kasbiy vazifalariga muvofiqligi darajasi uning pedagogik yetukligi mezonlaridan biri va kasbiy shaxsiy o‘z-o‘zini boshqarishni takomillashtirish omilidir. N.V.Kuzmina “pertseptiv-refleksiv qobiliyatlar pedagogik intuitsiyasini shakllanishini ta’minlaydi” deya e’tirof etadi. Pedagogik intuitsiya pedagogning kasbiy pedagogik faoliyatining prognostik va evristik jihatdan takomillashuviga olib keladi[4].

Bo‘lajak boshlang‘ich ta’lim o‘qituvchilarining pedagogik kasbiy faoliyat sohasida pedagogik intuitsiya talaba shaxsining faoliyat doirasining tuzilishini tushunishga imkon beradi, shu bilan birga talabaning ehtiyojlari, kayfiyati, aqliy xususiyatlari va ijtimoiy-psixologik munosabatlarni o‘rnatishni hisobga oladi. Muvaffaqiyatli ta’lim o‘qituvchining ijodkorligi va talabalarning ichki dunyosiga kirib borish, mas’uliyatli qarorlar qabul qilish va munosabatda bo‘lish, pedagogik idrok etish qobiliyatiga bog‘liq. Shunday qilib, pedagogik intuitsiya kasbiy ijodkorlikning sharti va shaxsning kasbiy o‘zini o‘zi rivojlantirish komponenti sifatida qayd etiladi. Shaxsning kasbiy o‘zini-o‘zi rivojlanishiga ta’sir qiluvchi va rag‘batlantiruvchi yana bir omil - bu kasbiy faoliyatdagি kasbiy va shaxsiy tajribani qayta ko‘rib chiqishga va o‘qituvchilik faoliyati mazmunining o‘ziga xos xususiyatlarini bilishga yordam beradigan pedagogik refleksiyadir. Zamonaviy ta’limga xos bo‘lgan va ta’lim jarayonida ro‘y berayotgan o‘zgarishlarni tahlil qilish va amalga oshirish, refleksiv mexanizmlar yordamida o‘z ta’lim jarayonini o‘z-o‘zini tartibga solish va o‘z harakatlarining muvaffaqiyatini kuzatish zarur hisoblanadi.

Pedagogik refleksiya va pedagogik intuitsiya bo‘lajak o‘qituvchining o‘z-o‘zini rivojlantirishning harakatlantiruvchi kuchidir. Kognitiv qulaylik vaziyatlarning takrorlanishi, ko‘plab savollarga javoblarning tayyorligi, yuzaga kelgan muammoni aniq tushunish va uni hal qilishning sodda va oson ko‘rinishi bilan belgilanadi. Faoliyatni tahlil qilish va an’anaviy “qolip” lar doirasida o‘qituvchi kamroq xatoga yo‘l qo‘yishi mumkin, lekin sezgi va ijodkorlikdan odatdagidan kamroq foydalanadi. Pedagogik intuitsiya o‘qituvchining kasbiy faoliyatida katta rol o‘ynaydi. Unga amal qilgan holda, o‘qituvchi ko‘pincha tez va to‘g‘ri echim topishga va hatto “haqiqat” ni aniqlashga muvaffaq bo‘ladi. Intuitsiya - bu ongsiz darajada kutilmagan tushunish va qaror qabul qilishdan iborat bo‘lgan intellektual hodisa. Asosan, intuitsiya kutilmagan vaziyatlardagi muammoni hal qilish muayyan maqsadni ko‘zlaganda paydo bo‘lishi mumkin.

Xulosa qilib shuni aytish kerakki, bo‘lajak boshlang‘ich ta’lim o‘qituvchilarining kasbiy rivojlanishida pedagogik refleksiya va intuitsiya muhim omillar sifatida namoyon bo‘ladi. Pedagogik refleksiya o‘qituvchining o‘z kasbiy faoliyatini anglash, tahlil qilish va takomillashtirishga yo‘naltirilgan jarayon bo‘lib, uning kasbiy o‘sishini ta’minlaydi. Refleksiya orqali o‘qituvchi o‘z pedagogik uslublarining samaradorligini baholaydi, ta’lim jarayonida yuzaga keladigan muammolarni hal etish strategiyalarini ishlab chiqadi hamda shaxsiy va kasbiy kamchiliklarini bartaraf etishga intiladi.

Pedagogik intuitsiya esa o‘qituvchiga murakkab va kutilmagan vaziyatlarda tezkor hamda to‘g‘ri qaror qabul qilish imkonini beradi. Intuitsiya ta’lim jarayonining ijodiy tashkil etilishi, o‘quvchilarining ehtiyoj va qiziqishlariga moslashish hamda samarali pedagogik muloqotni shakllantirishda muhim rol o‘ynaydi. Ushbu qobiliyat o‘qituvchining kasbiy mahorati va tajribasi ortib borishi bilan yanada takomillashib, uning pedagogik faoliyatini yuqori bosqichga olib chiqadi.

Shunday qilib, pedagogik refleksiya va intuitsianing uyg‘unligi boshlang‘ich ta’lim o‘qituvchilarining kasbiy rivojlanishini ta’minlashda asosiy omillardan biri hisoblanadi. Ushbu qobiliyatlarining shakllanishi va rivojlanishi o‘qituvchining samarali pedagogik faoliyat yuritishiga, ta’lim sifatini oshirishga va o‘quvchilarining har tomonlama

rivojlanishiga xizmat qiladi. Shu boisdan, pedagogik ta'lim jarayonida refleksiya va intuitsiyani rivojlantirishga alohida e'tibor qaratish muhim ahamiyat kasb etadi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Ушаков Б.Г. 2012. Рефлексивные основания профессиональных компетенций педагога вуза. Материалы научно-практической конференции Северо-Западного института управления (1): 197-206.
2. Митина, Л.М. Психология труда и профессионального развития учителя / Л.М.Митина. – М.: Академия, 2004. – 318 с.
3. Мысление учителя: личностные механизмы и понятийный аппарат / Ю.Н.Кулюткин, Г.С.Сухобская, С.Н.Иванова; под ред. Ю.Н.Кулюткина: АПН, НИИ общ. образ. взрослых. - М.: Просвещение, 1984. - 120 с.
4. Кузьмина, Н.В. Формированиепедагогическихспособно- стей // Н.В.Кузьмина. – Л.: Изд-во Ленингр. ун-та, 1972. – 98 с.